



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 19 avgust

№ 1928

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 79-moddasi va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I:

Naraliyev Baxtiyar Xudoyberdiyevich – yozma arizasiga binoan hamda odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni buzganligi uchun Surxondaryo viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Sherobod tumanlararo sudining raisi lavozimidan;

Jumayev Diyor Bozorovich – odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni buzganligi uchun Termiz tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimidan;

Qulto‘rayev Sarvar Bozorovich – odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni buzganligi uchun Termiz tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Kengash raisi



X.Yodgorov